



## YEVROPA TARIXCHILARI MA'LUMOTLARIDA AMIR TEMURNING ERON VA IROQ HUDUDIDAGI HARBIY HARAKATLARI

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Jahon tarixi*

*kafedrasi Assistenti*

*Elimov Lochin*

Ushbu maqolada Amir Temurning Eron va Iroq mintaqasida olib borgan harbiy harakatlariga yevropalik tarixchilarning munosabati tadqiq qilingan. Bunda asosan Amir Temurning G'arbiy Eron va Iroq hududlariga qilgan harbiy yurishining mintaqa xalqlarining siyosiy tarixidagi ahamiyati qanday ekanligini g'arb tarixchilari o'z asarlarida qay tarizda yoritganligiga ham e'tibor qaratilgan. Chunki, Amir Temurning bu mintaqada olib borgan siyosati Yaqin Sharqqa kirib borishiga yo'l ochgan. Amir Temurning Yaqin Sharq mintaqasiga kirib kelishi esa keyinchalik bilvosita ayrim Yevropa davlatlari siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ham ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazgan.

*Kalit so'zlar. Amir Temur, Sharafuddin Ali Yazdiy, Jan Pol Ru, Tilman Negel, Lyusen Keren, Fors, Muzaffariylar, Shoh Mansur, Bag 'dod, Jaloyir ibn Uvays.*

В данной статье рассматривается реакция европейских историков на военные действия Амира Темура в регионе Ирана и Ирака. При этом значение военного похода Амира Темура на западные регионы Ирана и Ирака в политической истории народов региона сосредоточено главным образом на том, как освещали его в своих трудах западные историки. Потому что политика Амира Темура в этом регионе подготовила почву для его проникновения на Ближний Восток. Вступление Амира Темура в ближневосточный регион косвенно повлияло на политическую, экономическую и культурную жизнь некоторых европейских стран.



**Ключевые слова.** Амир Тимур, Шарафуддин Али Язди, Жан Поль Ру, Тильман Негель, Люсъен Керен, Персия, Музффарис, Шах Мансур, Багдад, Джалаирий ибн Увайс

This article examines the response of European historians to Amir Temur's military actions in the region of Iran and Iraq. In this, the importance of Amir Temur's military campaign to the Western regions of Iran and Iraq in the political history of the peoples of the region is mainly focused on how western historians have covered in their works. Because Amir Temur's policy in this region paved the way for his penetration into the Middle East. Amir Temur's entry into the Middle East region indirectly influenced the political, economic and cultural life of some European countries.

**Key words.** Amir Timur, Sharafuddin Ali Yazdi, Jean Paul Roux, Tilman Negel, Lucien Keren, Persia, Muzaffaris, Shah Mansur, Baghdad, Jalayir ibn Uwais.

Amir Temur To‘xtamish bilan 1391-yildagi g‘alabali jangdan so‘ng ortga qaytgan. Shu yilning oktyabr oyida Temur qo‘sishnlari Toshkentga kelib, bu yerda biroz dam olgach, 1392-yilning martida poytaxt tomon yurgan. U bu g‘alabali yurishdan keyin askarlariga biroz dam bergen. Amir Temur o‘z askarlarini dam olishi bilan birgalikda yangi harbiy harakatga tayyorlanib borgan. Bu amalga oshirilgan harakat tarixda “besh yillik” yurish nomi bilan qolgan.

Amir Temur nima sababdan bu yurishni tashkil qildi degan savolga javob beraylik. Birinchidan, uning bu hududda amalga oshirayotgan harbiy harakatlari oxiriga yetmay qolgan. Bunga sabab sifatida To‘xtamishni Movarounnahrga qilgan bosqini bo‘lsa, ikkinchidan, Amir Temur Oltin O‘rda bilan band bo‘lib turgan vaqtida Forsda Muzaffariylarning harakati ancha faollashgan. Bundan tashqari yana bir qancha sabablar bu yurishni amalga oshishiga turtki bo‘lgan.



Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda Amir Temur yangidan kuch to'plagan. Sharafuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy asarlarida keltirilishiga, Amir Temur 1392-yil 7-iyunida Eronga "besh yillik" yurishni rasman boshlagan. Samarqanddan yo'lga chiqqan bu ulkan qo'shin Buxoro atrofida bir oycha to'xtab qolgan. G'arb tarixchilaridan Jan Pol Ru va Tilman Negel ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur Buxoroga yetganida kasal bo'lib qolgan. Shunday ma'lumot yana ko'plab g'arb tarixchilarining asarlarida ham uchraydi. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnomasi" Amir Temurning kasal bo'lishi va tuzalishi to'g'risidagi g'arb tarixchilarining ma'lumotini tasdiqlaydi. Ali Yazdiy Sohibqironning 27-iyul kuni harbiy harakatni davom ettirgan deb ma'lumot bergen [1;144].

Jan Pol Ru Amir Temurning Buxorodan Eron tomonga qarab harakatni boshlagan sanasi sifatida 31-iyulni ko'rsatgan. Lekin boshqa birlamchi manbalarda yurish boshlagan sana sifatida 27-iyul keltirilgan.

Eron sari harakatni boshlagan qo'shin hozirgi Turkmaniston hududi orqali o'tib Kaspiy dengizining janubida joylashgan Omul va Sori viloyatlarini egallagan. Bu hududlar egallangandan keyin Amir Temur janubga qarab harakatlangan. Amir Temur dastlab e'tiborini Forsga qaratgan. Uning bunday yo'l tutishiga mintaqadagi vaziyat anchagina chigallashgani sabab sifatida qaralgan. Bu hududning avvalgi hukmdori Shoh Shoju vasiyatiga zid ravishda Shoh Mansur hokimiyatni egallahidan Amir Temur keskin noroziliginini bildirgan.

Amir Temur boshchiligidagi qo'shin 1393-yil may oyida Sherozga yetib borganligini, Shoh Mansur boshchiligidagi isyonkorlar Amir Temurga qarshi kurashni boshlaganligini ta'kidlagan. Qo'qqisdan qilingan bu harakat Amir Temur qo'shinlarini sarosimaga solib qo'ygan. Kutulmagan hujum natijasida Temur qo'shinlari to'zib ketadi. Bunday holat natijasida Amir Temur asosiy qo'shindan ajralib qoladi. Buni ko'rgan Shoh Mansur boshchiligidagi bir guruh askarlar Temurga qarshi harakatni boshlaydi. Lyusen Keren shu o'rinda Shoh Mansurning Amir Temurga qarshi harakatini



va 17 yoshli Shohruh Mirzoning jasoratini ham alohida ta'kidlab o'tgan. Uning ma'lumoticha, Amir Temurni jonini yoshgina shahzoda Shohruh Mirzo asrab qolgan.

Shohruh Mirzo Shoh Mansurning boshini tanasidan judo qilib Amir Temurning oti oyog'i pastiga tashlaganini va "Barcha dushmanlaringizni boshlari otingizni tuyoqlari ostiga shunday tushsin" deya xitob qilgan bo'lsa [2;226], Lyusen Keren jangdan keyingi amalga oshirilgan tadbirlarga o'z e'tiborini qaratgan. Uning yozishicha, Shoh Mansur halok bo'lgach qolgan qo'shin taslim bo'lgan. Shundan keyin Sheruz darvozalari sarkarda uchun ochilgan. Lyusen Keren yozishicha, sherozliklar bu qilmishlari uchun anchagina tavon to'lagan [3;69-70]. Bu to'lojni kattagina qismini turli xil qimmatbaho idishlar tashkil qilgan.

Amir Temur Sheruz shahriga kirgandan keyin g'alaba sharafiga katta ziyofer beragan. Ziyofer avjida u Forsga o'zining ikkinchi o'g'li Umarshayxni hokim qilib tayinlaganini e'lon qiladi. Shu bilan bu hududlar yana Amir Temur davlati tarkibiga kiritilgan.[4;142]

Amir Temur Sheruz shahrini egallagach, Iroqi Arabga qarab yurish qilish taraddudiga tushgan. U Bag'dod shahri sultoni Ahmad Jaloyir ibn Uvaysdan qasd olish niyatida bo'lgan. Chunki, bir vaqtvari Sulton Ahmad Amir Temur davlati tarkibidagi Tabriz shahriga hujum qilish bilan birgalikda yana bir qancha bem'ani harakatlarni amalga oshirgan. Shu va boshqa sabablar natijasida Sohibqiron uni jazolamoq uchun Iroqqa qarab harakatlangan.

Amir Temur boshchiligidagi ulkan qo'shin 1393-yil avgust oyida Bag'dod sari yo'lga tushgan. Qo'shin tezda harakat qilib, sentyabr oyida shaharga yetib borgan.

Amir Temurning Bag'dod shahriga qilgan yurishiga hech qanday to'siq susaytira olmagan. Amir Temur askarlari tezda shaharga yetib borishi uchun hatto kechalari ham mash'alalar yorug'ida harakatni davom ettirgan.[3;72]

Amir Temurni Bag'dod shahriga yaqinlashganini eshitgan Ahmad ibn Uvays sarosimaga tushib qolgan. Ahmad ibn Uvays shaharni tashlab qochishi Amir Temur Bag'dod shahriga hech qanday qarshiliksiz kirishiga olib kelgan.[5;326-327]



Iroqi Arab Amir Temur davlati tarkibiga kirgandan keyin atrofdagi qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabat o'rnatish lozim bo'lgan. Birinchi galda Misr bilan shunday munosabat o'rnatishga harakat qilingan. Shu maqsadda Amir Temur bir necha marotaba Qohiraga elchilarini yuborgan. Lekin bu elchilikni Misr hukmdori Barquq yaxshi kutib olmagan.

Amir Temur Bag'dod shahrini egallaganidan keyin qisqa muddat qo'shinga dam bergen. Ulkan qo'shining xordiq chiqarishi ikki oyga cho'zilgan. Yetaricha dam olgan qo'shin bilan Sohibqiron Iroqning boshqa hududlarini ham birin-ketin zabit eta boshlagan. Xullas, 1393-yilning kuzi va 1394-yilning boshlarida Amir Temur qo'shnlari Shimoliy Iroqda harbiy harakatlarni amalga oshirgan.

Amir Temur Bag'doddan chiqqandan so'ng o'z qo'shnlari bilan Tikrit qal'asini qamal qilgan. Aytishlaricha, bu qal'a devorlarini shu vaqtgacha hech kim buza olmagan ekan. Amir Temur o'ziga bo'ysinishni istamagan shaharni qanday qilib bo'lsa ham egallahga harakat qilib, shahar devorlari ostidan lahm qazishga buyruq bergen. Bu jarayonda tahminan 72 mingga yaqin askarlar ishtirok etgan [3;72].

Tikrit qal'asini egalagandan so'ng, Amir Temur bu yerda qo'shining ma'lum bir qismini qoldirib, o'zi harakatda davom etgan. O'g'li Mironshohni janubga, Basraga yuborib, o'zi esa shimolga qarab harakatni davom ettirgan. U Mosulni egallaq, Turkiya va Suriya chegarasida joylashgan Diyorbakr degan joyda to'xtagan. Amir Temur Halabdan shimolda joylashgan Edessani egallashi, Misr bilan munosabatlarini yanada yomonlashib ketishiga olib kelgan.

"Amir Temur qo'shnlari shu yerda Misr mamluklari bilan jangga tayyor turgan edi"- deydi Hilda Hukham [4;175]. Lekin aynan shu davrda Gurjiston va Ozarbayjondagi boshlangan boshboshoqlik harakati va To'xtamishning qilgan amallari bu yurishni amalga oshishiga imkon bermagan. Bundan tashqari, aynan shu vaziyatda o'g'li Umarshayxning kurdalar qo'lida halok bo'lishi sarkardani yanada qayg'uga solgan. Vaziyatni to'g'ri tahlil qilgan Amir Temur o'z qo'shini ortga qaytaradi.



Amir Temurning G’arbiy Eron va Iroq hududiga o’z qo’shini bilan kirib kelishi mintaqasi siyosiy vaziyatiga katta ta’sir o’tkazgan. Natijada Amir Temur qudratidan qo’rqib unga qarshi Yaqin Sharq mintaqasida ittifoq vujudga kela boshlagan.

### Foydalaniman adabiyotlar ro’yxati

1. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”/ Сўз боши табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмедов, Ҳайдарбек Бобабеков. “Шарқ” Тошкент, 1997.
2. A.Vambery. Eine legendare Geschte Timur // Zeitschift fur Assirologie und verwandte Gebiete, LI, Strassburg, 1897.
3. Keren L. Tamerlan. Paris. 1980.
4. Hilda Hookham. Tamburlaine the conqueror. London: 1962.
5. Tilman Negel.Timur der Eroberer und die islamische Welt des späten Mittelalters (Deutsch) Gebundene Ausgabe. 1993.